



**BUXORO VILOYATI YONG‘IN XAVFSIZLIGI TARIXI MUZEYINING
TAVSIFI**

*Boltayev Bobir Baxtiyorovich – Buxoro davlat universiteti katta
o‘qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Buxoro viloyatida yong‘in xavfsizligi xizmati tarixiga bag‘ishlangan muzey ilmiy dalillar asosida tavsiflangan.

*Kalit so‘zlar: Buxoro, yong‘in xavfsizligi xizmati, muzey faoliyati, o‘t
o‘chirish tarixi.*

ANNOTATION

In this article, the museum dedicated to the history of the fire safety service in Bukhara region is described on the basis of scientific evidence.

*Key words: Bukhara, fire safety service, museum activity, firefighting
history.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе научных данных описывается музей, посвященный истории службы пожарной безопасности Бухарской области.

*Ключевые слова: Бухара, пожарная служба, музейная деятельность,
история пожаротушения.*

Ko‘hna va navqiron Buxoro o‘zining buyuk allomalari va fozil odamlari, olimu-ulammolari bilan jahon madaniyati taraqqiyotiga juda katta hissa qo‘shgan. Madomiki allomalarimiz aytganlaridek borliq asosini to‘rt unsur tashkil etar ekan, uning muqaddas ekanligi, va bu to‘rt unurning biri olov bo‘lib, uni o‘z o‘rnida ishlatib, ehtiyotkorlikni unutmazlik kerakligini ham ta’kidlab o‘tadilar. Bobokalaonlarimiz tomonidan barpo etilgan masjid-madrasalar, savdo rastalari, toqlar, bozorlar, do‘konlar va hatto hukumdor qarorgohi Ark qo‘rg‘onida



ham yong'in xavfsizligi talablariga amal qilish eng asosiy vazifalardan hisoblangan.

Buxoro shahar aholisini ichimlik suvi va yong'inlarni o'chirishda foydalanadigan suv ta'minotini amalga oshirish maqsadida "Shohrud" kanali va uning atrofi bo'ylab yuzdan ortiq toshdan qurilgan hovuzlar bo'lgan. XIV asrlarda bunyod etilgan Labi-hovuz, Bolohovuz, Xo'ja Zayniddin nomi bilan yuritilib kelayotgan hovuzlar hozirgi kunda ichimlik suvi sifatida ishlatilmasa-da, ammo sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarni o'chirishda o'ziga xos suv zaxirasi hisoblanadi. Hovuzlar katta mulkga ega bo'lgan badavlat kishilar mablag'i hisobiga, yollangan ustalar tomonidan qurilgan. Shu sababli hovuzlar ko'pincha bosh usta nomi bilan nomlangan va shunday yuritila boshlangan[1]. Tarixiy manbalarda bizlarga ma'lumki uzoq o'tmishda ham hozirda ham nazoratdan chiqib ketgan olov dushmanga aylanib, shaharu-qishloqlarni, mol-mulklarni hatto insonlarni o'z domiga tortgan va ularga ham moddiy ham ma'naviy zarar etkazgan. X-XII asrlarda Buxoro zaminidagi o'zaro urushlar, mug'ul bosqinchilarining yurtimizga qilgan yurishlari natijasida sodir bo'lgan yong'inlardan xalq juda ko'p aziyat ko'rganligi va bu yong'inlarni bartaraf qilishda kuch hamda imkoniyat topa olmaganliklari haqqida buxorolik tarixchi olim, tarix fanlari nomzodi V.G.Saakov o'zining "Buxoro tarixi yuz savolga yuz javob" kitobida juda ko'p misollar keltirib o'tgan.

Bundan tashqari qadimiy qo'lyozmalar ham o'tmishda yong'in va u bilan bog'liq voqealar hodisalar haqqida qimmatli ma'lumotlar berib kelmoqda, ma'lumki yong'inlar qadim-qadimdan odamzot boshiga ko'plab kulfatlar va tashvishlar keltirgan. Insoniyat yaratilbdiki olovga bo'lgan ehtiyoj bilan yashaydi va unga intiladi. Undan imkon darajasida foydalanishga harakat qiladi. Shu boisdan, insonlar o'sha qadim zamonlardan boshlab, yong'in va ular oqibatida yuzaga



keladigan ofatlarni qanday qilib oldini olishni o'ylay boshlaganlar. Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma" asarida ham yong'inning qanchalik dahshatli ofat ekanligi va uning mudhish oqibatlari haqida ayrim ma'lumotlarni keltirib o'tadilar: Buxoroda birmuncha miltiq, o'q dori ehtiyoj tushganda kerak bo'ladi, tayyor va muhayyo bo'lub tursin deb yig'ib qo'yilgan edi. To'satdan dorixonaga o't ketdi, Tangri g'azabi alanganib, qazo qo'li do'zax tabaqali eshigini fano ahli yuziga ochdi. Bu guzargohda ko'proq odamlar jam bo'lar edi. Xalq xuruji bu yerda behad va behisob edi. Shu tariqa sarosima bo'lib yurgan ko'pchilik xalqning ko'prog'i tuproq supasiga oyoq bosib, boshini barbod berdi, jonu tanini behojat o'tga kuydirib, balo girdobida halok bo'ldi. Miltiq dorisining o'ti shu darajada kuchli bo'ldiki, barvasta odamlarni, g'isht, tog'u-toshlarini va shu saroy qurilishida ishlatilgan yo'g'on yog'ochlarni havoga uchirib ketdi. Bir qancha vaqtgacha osmondan qo'l, oyoq, tosh, yog'ochdan boshqa narsa tushmadi deb qayd qiladi[2]. Yana bir hikoyada keltirilishicha Amiri Sa'id Buxoroga o'zining yaqin kishilaridan biri Abdul-Abbos ibn Yahyo ibn Asad as-Somoniyni xalifa qilib qoldirib, o'zi Nishopurga ketadi.

O'sha yili "Gardun kushon" mahallasida yong'in chiqib, u shunday kuchayadiki, hatto Samaranda ham odamlar bu yong'inni ko'rib turdilar. Buxoroliklar: "Bu olov samodan keldi"-deb o'ylagan ekanliklari va ular bu yong'in oldida o'zlarining ojiz ekanliklarini yana bir karra his etganliklari juda qiziqarli yoritib berilgan[3]. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur davridayoq o't o'chirish kasbiga asos solinganligining guvohi bo'lamiz. Buyuk sarkardaning buyrug'iga muvofiq uning saltanatida maxsus o't o'chiruvchi o'nliklar tashkil etilgan va bu o'nliklar kerakli barcha anjomlar bilan to'liq taminlangan hamda ularga juda yuqori maosh to'langanligi takidlab o'tish o'rinli deb hisoblaymiz. Mavjud ariq va hovuzlar



suvlarining ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, aholi sog'ligini muhofaza qilish maqsadida ularda otlarni sug'orish, chorva mollarni cho'miltirish man qilingan edi. Havzalar, ariqlarga iflos chiqindi suvlarni oqizish va to'kish hatto tupurish islom shariati qonun qoidasi bo'yicha ham katta gunohlardan biri hisoblangan. Bunga Buxoro ahli asrlar davomida amal qilib kelmoqda. Suv havzalariga yaqin joylarda hojatxona va axlatxonalar qurish taqiqlangan bo'lib, bu tartibni buzganlarga nisbatan katta miqdordagi jarima solinishiga asos bo'lgan. Shahardagi eng katta hovuz Labihovuz bo'lib, u 1620 yilda qurilgan edi. Ush bu hovuzning bo'yi qirq ikki metr, eni o'ttiz olti metr, chuqurligi esa besh metrni tashkil etgan. Hovuz zinamasimon shaklda xarsangtoshlardan kesilib ustalar tomonidan mohirlik bilan terilgan. Hovuzning bunday qurilishi birinchidan, suv kamaygan paytda shu zinalar orqali tushib olish imkoniyatini yaratgan bo'lsa, ikkinchidan, loyqa bosganda uni tozalash uchun mo'ljallangandir.

Qadimda Buxoro shahrida sodir bo'lgan yong'inlarni asosan aholi meshkoblar yordamida o'chirar edi[4]. Mesh sifatli ishlov berilib, oshlangan qoramol terisidan qopga o'xshatib tayyorlangan. Uni elkalariga osib olgan meshkoblar hovuzlardan suvni to'ldirib ko'chama - ko'cha yurib, xonadonlarga suv etkazib berishgan, sodir bo'lgan yong'inlarni o'chirishda qatnashib, shu bilan tirikchilik qilishgan. 1916-1920 yillarda Buxoroda bunday meshkoblar soni qirq besh nafargacha bo'lganligi hujjatlarda qayd qilib o'tilgan. Turkiston o'lkasining Rossiya tomonidan bosib olinishi, sanoat uchun xom ashyoning etarli emasligi, qishloq xo'jaligi rivojlanishi ehtiyoji hamda texnika vositalarining kirib kelishi kichik korxonalarining ochilishi oqibatida ham bu o'lkada juda ko'p yong'inlar bo'lanligining guvohi bo'lish mumkin. O'lkada ko'plab yong'inlarning sodir bo'lishiga qaramay, Turkiston general-gubernatorligi tomonidan ularning oldini olish borasida kerakli tegishli chora-tadbirlar ko'rilmadi. Bir qancha uyezd



boshliqlarining yong'inga qarshi choralar ko'rish, o't o'chirish qismlarini tashkil etish, unga kerakli bo'lgan anjomlarni sotib olish haqidagi iltimosi etiborsiz qoldirilgan[5]. Arxiv ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, Turkiston o'lkasida juda ko'p yong'inlar sodir bo'lgan. Shundan so'ng vaziyat tobora taranglashib borayotganini ko'rgan general-gubernatorlik o't o'chirish komandasini tuzishga qaror qildi.1902 yil Toshkentda mahalliy polisiya tarkibida o't o'chirish komandasi tuzildi.Buxoroda esa ilk o't o'chirish qismi 1925 yilda hozirgi viloyat klinik kasalxonasi hududida joylashgan bo'lib, uning jangovor tarkibi olti yuz litr suv sig'imiga ega ikkita bochkali ot arava, o'n to'rt nafar shaxsiy tarkib va o't o'chirish asbob uskunalaridan iborat bo'lgan edi. 1929-yil 2-fevralda Buxoro shahar o't ochirish braydmestri shahar kengashiga yuborgan xatida: Buxoro shahrida doimiy ravishda qirq besh meshkob Ganijon Qodirov,T.Sayfullayevlar o't o'chiruvchilatga mesh va chelaklarda doimiy suv etkazib berganligi takidlab o'tilgan.Bulardan tashqari o't ochiruvchilarga Alyoxina, Kuratova, Ahmedov, Habibovlar kabi vaqtinchalik suv etkazib turadigan sakkiz nafar meshkob ham bo'lganligi arxiv hujjatlarida qayd qilib o'tilgan[6]. Shunday qilib Buxoro hududida ilk yong'in xavfsizligi xizmati tashkil topganligi rasman qayd qilinib, hozirgi kunda yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari ajdodlarimiz an'analarini davom ettirgan holda ular tomonidan asos solingan xizmatni, tashkil qilingan yong'in o'chirish komandalari ularning jangovor hisobida bo'lgan ot-ulovli yong'in o'chirich anjom va uskunalari bilan navbatchilikni boshlagan jamoalar o'rniga zamonaviy yong'in xavfsizlik qismi binolari, yuqori quvvatga ega bo'lgan yong'in o'chirish avtomobillari jangovor safdan o'z o'rnini egallab kelmoqda[7].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yuqorida qayd etib o'tilgan tarixiy jarayonlarning barchasi bugungi kunda Buxoro shahrining eski shahar qismida joylashgan Favqulotda Vaziyatlar Vazirligi Buxoro viloyati Yong'in xavfsizligi



boshqarmasi qoshidagi “Targ’ibot markazida” mujassam holda juda nodir eksponatlar orqali namoish qilib kelinmoqda. Ushbu targ’ibot markazi muzeyiga bugungi kunda T.Kazakov rahbarlik qilib kelmoqda. Yong’inning mudhish oqibatlarini aks ettirilgan foto lavhalar, maketlar, arxiv hujjatlari, asbob-uskunalar, turli maketu-xaritalar, qo’llanmalar muzeyning oltita xonasida tashrif buyuruvchilar uchun namoishga qo’yilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бухоро ёнғин хавфсизлиги: ўтмиш ва бугун. – Т.: “Бухоро” нашриёти, 2007. – Б. 14.
2. Ҳофиз Ганиш ал-Бухорий. “Абдуллонома”. “Шарқ” нашриёти-матбаа концерни бош тахририяти, Тошкент-2000 й. Б-221
3. Наршахий “Бухоро тарихи”. “Фан” нашриёти, Тошкент-1966 йил. Б-83
4. Бухоро вилояти давлат архиви, 37-фонд, 2-рўйхат, 35-йиғма жилди, 38-42 варақлар.
5. Бухоро ёнғин хавфсизлиги: ўтмиш ва бугун. – Т.: “Бухоро” нашриёти, 2007. – Б. 19.
6. Бухоро вилояти давлат архиви, 778-фонд, 1-рўйхат, 4-йиғма жилди, 179 варақ.
7. Казаков Т. Касбим фахрим. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2018. – 7-8 б.